“Asia Alliance Bank” ATB tomonidan
“Tadbirkorlik subyektlariga
modulli kreditlar ajratish
to`g`risida”gi Nizomga
1 - sonli ilova

| Kredit mahsuloti pasporti | |
|---|---|
| **Kredit mahsuloti nomi** | **U N I V E R S A L E C O A U T O** |
| **Kredit turi** | Kredit liniyasi ochmasdan |
| **Kredit maqsadi** | 1. Xizmatda foydalanish maqsadida birlamchi bozordan (yangi) avtotransport vositasini sotib olish uchun;<br>2. “Asaka Motors International” MCHJ dileri tomonidan sotiladigan yangi Exceed, Fiat, Opel, Geely, Wuling/Bardosh va boshqa avtomashinalarni sotib olish uchun;<br>3. “UzAuto Motors” AJ tomonidan ishlab chiqarilib rasmiy dillerlari tomonidan realizatsiya qilinadigan “Damas”, “Labo”, “Onix” va “Tracker” rusumli avtotransport vositalarini sotib olish uchun. |
| **Kredit valyutasi** | 1. Yuridik shaxslar uchun - O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi yoki xorijiy valyuta (bank o‘z mablag’lari va xorijiy moliya institutlari liniyalari hisobidan);<br>2. Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun - O‘zbekiston Respublikasi milliy valyutasi yoki xorijiy valyuta (faqatgina xorijiy moliya institutlari liniyalari hisobidan); |
| **Kredit oluvchilar** | 1.Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan tadbirkorlik subyektlari (XK, MCHJ, XF, QK va xk.);<br>2.Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari (YaTT, OT, XT va xk). |
| **Kredit miqdori** | 1. Yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan tadbirkorlik subyektlari uchun 5 000 000 000,0 (Besh milliard) so`mgacha;<br>2. Yuridik shaxs maqomiga ega bo`lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun - 3 000 000 000,0 (Uch milliard) so`mgacha. |
| **Kredit muddati** | 60 oy muddatgacha |
| **Imtiyozli davr** | 6 oy muddatgacha (“Asaka Motors International” MChJ va “UzAuto Motors” AJ dillerlari orqali transport vositalari sotib olinganda imtiyozli davr qo‘llanilmaydi) |
| **Taqdim etish shakli** | Yetkazib beruvchi va qarz oluvchi o‘rtasida tuzilgan shartnomaga asosan pul ko‘chirish yo‘li orqali |
| **Kreditni so`ndirish tartibi** | Kredit va hisoblangan foizlarni to’lash kredit shartnomasida belgilangan tartibda va shartlarda annuitet yoki differensial to’lov usulida amalga oshiriladi |
| **Boshlang’ich to‘lov** | 1. “Asaka Motors International” MChJ tomonidan avtomobil olinganda avtotransport vositasi qiymatining 25% dan kam bo`lmagan miqdorda;<br>2. Boshqa yetkazib beruvchilardan olinganda avtotransport vositasi qiymatining 30% dan kam bo`lmagan miqdorda;<br>3. “UzAuto Motors” AJ tomonidan ishlab chiqarilib rasmiy dillerlari tomonidan realizatsiya qilinadigan “Damas” va “Labo” avtotransport vositalarini sotib olganda avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, kredit hisobiga sotib olinayotgan avtotransport vositasi narxining 26% dan kam bo’lmagan miqdorda;<br>4. “UzAuto Motors” AJ tomonidan ishlab chiqarilib rasmiy dillerlari tomonidan realizatsiya qilinadigan “Onix” va “Tracker” avtotransport vositalarini sotib olganda avtotransport vositasini yetkazib berish shartnomasida belgilangan, kredit hisobiga sotib olinayotgan avtotransport vositasi narxining 25% dan kam bo’lmagan miqdorda; |

**Foiz stavkasi “Asaka Motors International” MChJ tomonidan avtomobil olinganda**

| Boshlang'ich badal | Kredit muddati / Yillik foiz stavkasi | | |
|---|---|---|---|
| | 24 oy | 30 oy | 36 oy |
| 25 % dan boshlab | 0,00% | | |
| 40 % dan boshlab | | 0,00% | |
| 60 % dan boshlab | | | 0,00% |

**Foiz stavkasi boshqa yetkazib beruvchilar tomonidan olinganda (yillik)**

| Kredit muddati / Yillik foiz stavkasi | | |
|---|---|---|
| 12 oygacha | 12 oydan 36 oygacha | 36 oydan 60 oygacha |
| 23% dan kam bo'lmagan | 24% dan kam bo'lmagan | 28% dan kam bo'lmagan |

Xorijiy valyutada:
a) Yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan tadbirkorlik subyektlari uchun bank o‘z mablag’lari hisobidan 13,5 foizdan past bo‘lmagan miqdorda 36 oygacha va xorijiy moliya institutlari liniyalari hisobidan bo‘lganda liniya shartlariga asosan;
b) Yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lmagan tadbirkorlik subyektlari uchun xorijiy moliya institutlari liniyalari hisobidan liniya shartlariga asosan biroq yillik 14 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda

**Foiz stavkasi “UzAuto Motors” AJ tomonidan “Damas“ va “Labo” avtomobil olinganda**

| Boshlang'ich badal | Kredit muddati / Yillik foiz stavkasi | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | 12 oy | 15 oy | 18 oy | 24 oy | 36 oy | 60 oy |
| 26 % dan boshlab | 0,00% | 0,50% | 4,00% | 7,70% | 12,50% | 16,50% |
| 30 % dan boshlab | 0,00% | 0,00% | 2,50% | 7,00% | 11,50% | 15,50% |
| 35 % dan boshlab | 0,00% | 0,00% | 0,00% | 5,00% | 10,50% | 14,50% |
| 40 % dan boshlab | 0,00% | 0,00% | 0,00% | 3,50% | 9,00% | 13,50% |
| 50 % dan boshlab | 0,00% | 0,00% | 0,00% | 0,00% | 5,00% | 11,00% |

**Foiz stavkasi “UzAuto Motors” AJ tomonidan “Onix“ avtomobil olinganda**

| Boshlang'ich badal | Kredit muddati / Yillik foiz stavkasi | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 30 oy | 36 oy | 45 oy | 58 oy |
| 25 % dan boshlab | 0,00% | | | |
| 30 % dan boshlab | | 0,00% | | |
| 50 % dan boshlab | | | 0,00% | |
| 60 % dan boshlab | | | | 0,00% |

**Foiz stavkasi “UzAuto Motors” AJ tomonidan “Tracker“ avtomobil olinganda**

| Boshlang'ich badal | Kredit muddati / Yillik foiz stavkasi | | | |
|---|---|---|---|---|
| | 24 oy | 26 oy | 36 oy | 47 oy |
| 25 % dan boshlab | 0,00% | | | |
| 30 % dan boshlab | | 0,00% | | |
| 40 % dan boshlab | | | 0,00% | |
| 60 % dan boshlab | | | | 0,00% |

| | |
|---|---|
| **Kredit qarzdorligi mavjud hollarda kredit miqdorini hisoblash** | Mijozning Bank oldida kredit qarzdorligi mavjud bo`lgan taqdirda jami qarzdorlik yuridik shaxs maqomiga ega bo`lgan tadbirkorlik subyektlari bo'yicha 5,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summadan, yuridik shaxs maqomiga ega bo`lmagan yakka tartibdagi tadbirkorlar (YATT, OT, XT va xk.) bo'yicha 3,0 mlrd. so'm ekvivalentidagi summadan oshmasligi lozim. Shuningdek, nazorat asosida bir qarzdor yoki o`zaro aloqador qarzdorlar guruhiga ajratilgan kreditlar bilan birgalikda hisoblanganda, jami qarzdorlik 7,0 mlrd.so'm ekvivalentidagi summasidan oshmasligi lozim. |
| **Kredit ta'minoti** | Kredit mablag'lari hisobiga sotib olinayotgan avtotransport vositalari shartnoma qiymatining 70 foizi qiymatidan oshmagan miqdorda ta'minot sifatida qabul qilinadi, garov ta'minotining yetmagan qismi bo'yicha Sug`urtalash shartlari bank uchun maqbul bo`lgan sug`urta kompaniyasining kreditning qaytmasligi xataridan sug`urta polisi qabul qilinadi |
| **Talab etiladigan hujjatlar** | Yuridik shaxslardan talab etiladigan hujjatlar:<br>1. Kredit arizasi, ta`sis hujjatlari, korxona ta'sischilari va rahbariyati ma'lumotlari, kredit olish va/yoki garov ta'minotini taqdim etish yuzasidan ta'sischilar roziligi/qarori;<br>2. Moliyaviy hisobotlar va ma'lumotlar (1-2-shakl operativ); balans yoyilmalari, boshqa banklardagi hisob raqam aylanmalari, olingan majburiyatlar va boshqa ma'lumotlar;<br>3. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko`rsatilgan holdagi kredit mablag`larining qaytarilishini asoslab beruvchi hisob kitoblar;<br>4. Garov bilan bog'liq hujjatlar;<br>5. Loyihani amalga oshirish bilan bog`liq boshqa hujjatlar. |
| | Yakka tartibdagi tadbirkorlardan talab etiladigan hujjatlar:<br>1. Kredit arizasi, guvohnoma, pasport nusxasi, faoliyat ko`rsatayotgan joyi yuzasidan tasdiqlovchi hujjatlar;<br>2. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va pul oqimlari prognozi ko`rsatilgan holda kredit mablag`larining qaytarilishini asoslab ko`rsatib beruvchi hisob kitoblar hamda loyihani amalga oshirish bilan bog`liq boshqa hujjatlar;<br>3. Mijoz tomonidan shakllantirilgan va loyiha parametrlari va pul oqimlari prognozi ko`rsatilgan holdagi kredit mablag`larining qaytarilishini asoslab beruvchi hisob kitoblar;<br>4. Garov bilan bog'liq hujjatlar;<br>5. Loyihani amalga oshirish bilan bog`liq boshqa hujjatlar. |
| **Qo‘shimcha shartlar** | 1. Mazkur Modulli kredit bo'yicha hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichi ushbu mahsulot qoldig'iga nisbatan 4%dan oshga taqdirda kreditlash to'xtatiladi, hisobot sanasidagi NPL ko'rsatkichlari bankning tegishli boshqarmasi tomonidan taqdim etib boriladi. Kreditlash mazkur NPL ko'rsatkichi belgilangan darajadan tushgan taqdirda qayta tiklanadi;<br>2. Kredit mablag‘larining maqsadli ishlatilishi o'rganilmaydi, kredit hisobiga sotib olingan ob'yektning garovga taqdim etilishining o'zi asos bo'ladi. |

| | |
|---|---|
| **Mijozga qo'yiladigan talablar** | 1. Operativ sanaga Qarzdorning moliyaviy natijalar bo'yicha hisoboti (2-shakl) faoliyati zarar bilan yakunlanmagan bo'lishi lozim. Agarda, Qarzdorning faoliyati natijalari zarar bilan yakunlangan bo'lsa va u haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno;<br>2. Operativ sanaga Qarzdorning o'z aylanma mablag'lari mavjudligi manfiy ko'rsatkichda bo'lmasligi lozim. Agarda, Qarzdor tomonidan ushbu ko'rsatkichlar haqqoniy ma'lumotlar bilan asoslantirilgan holatlar bundan mustasno;<br>3. Mavjud kredit va unga tenglashtirilgan operatsiyalar bo'yicha muddati o'tgan kredit qarzdorligi bo'lmasligi;<br>4. Kreditlar bo'yicha ohirgi 12 oy ichida:<br>30+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 2 tadan ko'p bo'lmasligi;<br>60+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari 1 tadan ko'p bo'lmasligi;<br>90+dan oshgan muddati o'tgan qarzdorliklari bo'lmasligi;<br>5. Nazorat asosida o'zaro aloqador korxonalarining "Asia Alliance Bank" ATB tizimida muddati o'tgan kredit qarzdorliklari mavjud bo'lmasligi;<br>6. Nazorat asosida qarz oluvchini kredit tarixi to'g'risidagi (KATM) ma'lumotnomasiga asosan mijozning barcha tijorat banklari hamda o'zaro aloqador korxonalarining "Asia Alliance Bank" ATB tizimida "qoniqarsiz", "shubhali" va "umidsiz" toifalarida tasniflangan amaldagi kreditlari mavjud bo'lmasligi;<br>7. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda amaldagi kreditlari yuzasidan asosiy qarzdorlik va kreditga hisoblangan foiz qarzdorliklari bo'yicha oraliq hamda yakuniy to'lov muddatlarini uzaytirish holatlari bo'lmasligi;<br>8. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan kollegial organ tomonidan/mavjud majburiyatlari boyicha belgilangan shartlarini bajarmaslik holatlari (umumiy jihatdan bajarilmaganligi, boshqa holatlari ya'ni muddatida bajarilmaganligi mustasno) mavjud bo'lmasligi;<br>9. "Asia Alliance Bank" ATB tizimida bugungi kunda mavjud kreditlari yuzasidan maqsadsiz ishlatilganlik holatlari mavjud bo'lmasligi lozim. (Maqsadli ishlatilganlik yuzasidan tekshiruv maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnomaga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar bo'yicha maqsadli ishlatilganlik to'g'risidagi dalolatnoma muddati yetib kelmagan, mijoz yetkazib beruvchini xizmat/mahsulot yetkazib bermaganligi uchun uni sudga bergan hamda kredit mablag'larini maqsadli ishlatilishini tekshirish lozim bo'lmagan mahsulotlar orqali ajratilgan kreditlar bo'yicha ushbu shart qo'llanilmaydi);<br>10. Mijozning Majburiy ijro byurosi tomonidan ochilgan ijro ishi bo'yicha to'lanishi lozim bo'lgan mablag' bo'lmasligi lozim;<br>11. Ohirgi 3 yilda kredit xizmatlari bo'yicha iqtisodiy sudda da'vo arizalari mavjud bo'lgan va da'vo arizasi qisman yoki to'liq qanoatlantirilgan taqdirda so'rovnoma ko'rib chiqilib, rad etiladi. |

*(*) Kredit mablag'larini xorijiy valyutada ajratish bankning ichki me'yoriy xujjatlarga asosan amalga oshiriladi. Bunda kreditlar xorijiy valyutada moliyalashtirish ko'zda tutilayotgan loyihalar bo'yicha import shartnomalarini moliyalashtirish maqsadlari uchun, shuningdek, ustuvor ravishda eksport tushumlariga ega bo'lgan tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.*